

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA SAVOD O'RGATISH DAVRIDA O'QUVCHILAR
NUTQINI O'STIRISH**

Xudayberganova Sanobar Ismoilovna

Xorazm viloyati Xiva tumani 14-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi

boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Ortikova Nafisa Otabek qizi

Xorazm viloyati Xiva tumani 14-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi

boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Pirova Onaxon Ikromovna

Xorazm viloyati Xiva tumani 14-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi

boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish davrida o'quvchilar nutqini o'stirish, savod o'rgatish davrida o'quvchilaming talaffuzi ustida ishlash haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit So'zlar: *interfaol, sheva, shaxs, predmet.*

Abstract: *This article provides information about the development of students' speech during literacy training in primary grades, working on the pronunciation of students during literacy training.*

Key Words: *interactive, dialect, person, object.*

Аннотация: *В данной статье приведены сведения о развитии речи учащихся в процессе обучения грамоте в начальных классах, работе над произношением учащихся в процессе обучения грамоте.*

Ключевые Слова: *интерактив, диалект, человек, предмет.*

KIRISH

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar nutqini o'stirishdir. Nutq o'stirish uch yo'nalishda: so'z ustida ishlash, so'z birikmasi va gap ustida ishlash, bog'lanishli nutq ustida ishlash orqali amalga oshirilishi metodik adabiyotlarda qayd etilgan. Savod o'rgatish darslarida ham yuqoridagi uch yo'nalish bo'yicha ish olib boriladi. Ona tilidan olib boriladigan ishlaming hammasi, shu jumladan savod o'rgatish ham o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirish bilan bog'liq holda uyushtiriladi. Savod o'rgatish davridagi ishlaming miqyosi keng bo'lib, ekskursiyalar, bolalaming kuzatishlari, predmet va sujetli rasm yuzasidan suhbat va shu kabilar bilan bog'lanadi.

Bu davrda o'quvchilar nutqini o'stirishning vazifalari quyidagilardan iborat: 1) o'quvchilar nutqidagi kamchiliklami to'g'rakash;

2) ularning tasawur va tushuncha doirasini kengaytirish bilan bog'liq holda lug'atini boyitish;

3) o'quvchilar nutqidagi ayrim so'zlaming m a'nosiga aniqlik kiritish;

4) gap va uch-to'rt gapli kichik „hikoya“ (bog'lanishli nutq)ni og'zaki to'g'ri tuzish ko'nikmasini o'stirish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bolalar bu davrda, birinchidan, kiyim-kechak, ish qurollari, mevalar kabi predmetlar bilan tanishish yordamida so'zni ongli ishlatalishga; ikkinchidan, turli sodda yig'iq gap (Bolalar yuguryaptilar), sodda yoyiq gap (Lola do'konga bordi), uyushiq bo'lakli gap (Anvar o'qidi va yozdi) tuzadilar. Ular bu ko'nikmalarni amaliy mashqlar yordamida egallaydilar. Bolalaming shaxsiy tajribalari, kishilar hayoti va tabiatni kuza-tishlari nutq o'stirish uchun asosiy manba hisoblanadi. Narsalar, uy-ro'zg'or buyumlari, o'simliklar, hayvonlar qiziqarli suhbat uchun mavzu bo'lib xizmat qiladi. Suhbat jarayonida bolalarda hosil qilingan tasawur asosida aniq tushunchalar shakllanadi. Birinchi sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda bolalaming o'yin va ermaklari, rasm ko'rish va „Bu nima?, Bu kim?, Unima qilyapti?“ kabi savollar asosida suhbatdan ham foydalanildi.

Savod o'rgatish davrida nutq o'stirishga oid ish turlariga atrofdagi jonli predmetlarning nomini, ularning belgilarini aytish, predmetlami m a'lum belgilari asosida guruhlash kabi mashqlar kiradi. Masalan, o'qituvchining topshirig'iga muvofiq, ma'lum bir mavzuda (kuz, mevali bog', sinf, mактаб haqida) ikki so'zdan iborat gap tuzadilar; keyinroq esa shunday yig'iq gapiar tuzib, uni savollar yordamida yoyiq gapga aylantiradilar. Ular o'rgangan harflaridan so'zlar va kichik gaplar tuzib yozadilar.

NATIJA

O'qish darslarida o'quvchilar rasmga qarab kichik hikoyacha tuzadilar, o'qituvchi savoliga to'liq javob berishga o'rganadilar. Alifbedagi rangli, chiroyli rasmlar tevarak-atrofdagi predmet va hodisalar, hayvonlar va o'simliklarning nomini idrok etishga, bilib olishga yordam beradi.

Savod o'rgatish davrida o'quvchilarning talaffuzi ustida ishslash ham katta ahamiyat kasb etadi, chunki ko'pgina bolalaming talaf-fuzida kamchiliklar bo'ladi: bir tovush o'rniga boshqasini talaffuz qiladilar, chuchuk til bilan duduqlanib gapiradilar, so'zdagi ayrim tovushni tushirib yoki boshqa bir tovush qo'shib talaffuz qiladilar, tovushlar o'rnini almashtirib qo'yadilar va hokazo. Bu kamchiliklami bartaraf etish uchun logopedlar maxsus mashqlardan foydalanadilar. O'qituvchi ham har bir darsda va darsdan tashqari vaqtida o'quvchilar talaffuzini kuzatib borishi, kamchiliklami aytib, to'g'ri talaffuz namunasini ko'rsatishi lozim. Savod o'rgatish davridagi har bir dars jarayonida nutq o'stirish ishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Shundagina o'quvchilarda adabiy nutq (shevalar ta'sirisiz, adabiy me'yor asosidagi nutq) ko'nikmalari shakllanadi va malakaga aylanadi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limining samaradorligi `oqitish metodini to`g'ri tanlash, "Ona tili" fanining amaliy yo`nalishidan kelib chiqib, ta`lim jarayonida ko`proq o`quvchini o`ylashga, fikrlashga undovchi, o`quv topshiriqlarini ishga solish, o`quvchilarda bilish — o`rganish ehtiyojini yuzaga keltiradigan dars shakllaridan foydalanish dars samaradorligini oshirib, ijobiy natija beradi..

Ona tilidan tashkil etiladigan didaktik o`yinlar o`quvchini izlanishga, ijodiy faoliyat ko`rsatishga, o`rganilayotgan til hodisalarining mohiyatini aniqlab, hukm va xulosalar

chiqarishga undaydi. Ta`limiy o`yinlar har bir o`quvchiga o`zini namoyish etish, o`z fikr – mulohazalarini himoya qilish, topshiriqni shavqu — zavq bilan bajarish imkoniyatini beradi. Har bir shaxsda tarbiyalanishi zarur bo`lgan ijobiy sifatlar: tezkorlik, sezgirlik, topqirlilik, hushyorlik, qat`iyatlik, bilmidonlik, mustaqillik, tadbirkorlik, ijodkorlik kabilar ko`pincha ta`limiy o`yinlar orqali tarkib toptiriladi.

Dars mashg`ulotlarida faqat bir xildagi o`yin — topshiriqlar bilan cheklanib qolmay, balki ko`proq ijodiylikka undovchi o`yin — topshiriqlarga e`tiborni kuchaytirishga to`g`ri keladi. Zero, o`quvchilarni fikrlashga, o`ylashga, matn yaratishga o`rgatmasak, hozirgi zamona darsiga qo`yilgan muhim talab shaxsning rivojlanishiga erishib bo`lmaydi.

XULOSA

Hozirgi kunda ta`lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o`quv jarayonida qo`llashga bo`lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo`lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta`limda o`quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o`rgatilgan bo`lsa, zamona viy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o`zlari qidirib topish, mustaqil o`rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o`zlari keltirib chiqarishga o`rgatadi. O`qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo`naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Dars mashg`ulotlarida o`yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O`yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sind o`quvchilarining o`yin-topshiriqlarni bajarishga o`rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o`rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog`liq bo`lishi kerak.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. / / Barkamol avlod — 0 ‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T.: „Sharq“, 1997.
2. Umumiyy o`rta ta`limning davlat ta`lim standartlari va o`quv dasturi // O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligining axborotnomasi, 7-maxsus son. - T.: „Sharq“, 1999.
3. Boshlang`ich ta`lim bo`yicha Yangi tahrirdagi davlat ta`lim standarti // „Boshi. ta`l“. jurnali. — Toshkent, 2005. — № 5. 5, 6, 8—9-betlar.
4. Boshlang`ich ta`lim bo`yicha Yangi tahrirdagi o`quv dasturi // „Boshi. ta`l“. jurnali. — Toshkent, 2005. — № 5. 21 — 33-betlar.